

**“RIVOJLANISHNING ILK POG‘ONASI: MAKTABGACHA YOSHDAGI
BOLALAR KAMOLOTI”***Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti**Logopediya yo‘nalishi 2-kurs talabasi***Ibragimova Durdona Dilmurod qizi***Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti**Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi***Azimova Dilnoza Sherzodvna**

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar psixologiyasi va jismoniy tarbiya nazariyasining asosiy jihatlari tahlil qilinadi. Unda bolaning ilk yoshidan boshlab shakllanadigan shaxsiy xususiyatlar, qobiliyatlar, taqlidchanlik hamda kattalar bilan bo‘ladigan munosabatlarning rivojlanishga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, eksperiment metodlaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, pedagogik va tarkib toptiruvchi eksperimentlarning farqlari hamda ularning ta’lim-tarbiyada tutgan o‘rni ko‘rsatib berilgan. Maqolada jismoniy tarbiya nazariyasining bolaning psixofiziologik xususiyatlari, harakat faoliyatlari va ta’lim-tarbiyaviy kompleks bilan bog‘liqligi haqida fikr yuritiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasining uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: bolalar psixologiyasi, faoliyat rivojlanishi, eksperiment metodi, pedagogik eksperiment, tarkib toptiruvchi eksperiment, jismoniy tarbiya nazariyasi, psixofiziologik xususiyatlar, maktabgacha ta’lim.

Аннотация: В данной статье анализируются основные аспекты детской психологии и теории физического воспитания. В ней освещается влияние личностных качеств, способностей, подражания и отношений со взрослыми, формирующихся с раннего возраста ребенка, на его развитие. Также показаны особенности использования экспериментальных методов, различия между педагогическим и формирующим экспериментом, а также их роль в обучении и воспитании. В статье рассматривается взаимосвязь теории физического воспитания с психофизиологическими особенностями ребенка, его двигательной активностью и учебно-воспитательным комплексом. На научной основе анализируется органическая связь физического, умственного, нравственного, эстетического и трудового воспитания в процессе воспитания детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: детская психология, развитие деятельности, экспериментальный метод, педагогический эксперимент, формирующий эксперимент, теория физического воспитания, психофизиологические особенности, дошкольное образование.

Abstract: This article analyzes the main aspects of child psychology and the theory of physical education. It sheds light on the influence of personal characteristics, abilities, imitation, and relationships with adults, which are formed from an early age, on the child's development. It also demonstrates the specific features of using experimental methods, the differences between pedagogical and formative experiments, and their role in education and upbringing. The article discusses the connection between the theory of physical education and the child's psychophysiological characteristics, motor activities, and the educational-upbringing complex. The organic link between physical, mental, moral, aesthetic, and labor education in the upbringing of preschool children is analyzed on a scientific basis.

Keywords: child psychology, activity development, experimental method, pedagogical experiment, formative experiment, theory of physical education, psychophysiological characteristics, preschool education.

Kirish: Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrofga ma'lum bir munosabatning shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, kattalaming bolalar bilan bo'ladigan hissiy, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talab vujudga keladi, dastlabki harakat va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi. Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog'liq.

Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan bo'ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan harakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni asta-sekin buyumlar olamiga olib kiradilar.

Mana shu yo'l bilan bola buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatning o'ziga xos tomonlarini egallab boradi. 2,5 yoshdan keyin buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatda bolalar ancha yuqori ko'rsatkichlarga erishadilar va ularning o'yin hamda tasviriy faoliyatga o'tishlari uchun asos yaratiladi.

Kattalar tomonidan tashkil etilgan muomala, munosabatlarda, faoliyatlarda o'z-o'zini anglab olishning dastlabki shakllari shakllanadi.

Mashg'ulotlardagi o'quv faoliyati orqali bolalar tevarak-atrofdagi tabiat, ijtimoiy hayot, kishilar to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirib oladilar.

Shuningdek, ularning aqliy va amaliy bilimlari kengayib boradi. Bular bolalarda tushunarli tafakkur rivojlantiriladi. Bolalar psixologiyasida eksperimentning har ikkala turidan keng foydalaniladi. Biroq bu metodlardan bolalar psixologiyasida foydalanishning o'ziga xos tomoni shundaki, bog'cha yoshidagi bolalar laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan eksperimentlar bilan tabiiy sharoitda o'tkaziladigan eksperimentlarning farqiga bormaydilar.

Har ikkala holda ham, tajribalar vazifa tarzida emas, balki o'yin tarzida o'tkazilsa yaxshi natija beradi.

Eksperiment metodidan guruhlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlar paytida keng foydalanish mumkin.

Masalan: turli yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan didaktik mashg'ulotlarda tabiiy eksperiment metodini qo'llash mumkin. Bunda bolalarga har xil hayvonlar, parrandalar, mevalar, sabzavotlar tasvirlangan rasmlar kartochkalarni aralash holda berib, ularni guruhlarga ajratish topshiriladi.

Bolalar bu narsalarni qanday belgilariga qarab guruhlarga ajratishlarida ularning umumlashtirish xususiyatlarini o'rganish mumkin.

Odatda, guruh sharoitida o'tkaziladigan bunday eksperimentni tabiiy eksperiment deb yuritiladi.

Bolalar psixologiyasida tarkib toptiruvchi eksperiment metodidan ham foydalaniladi. Bunda bolalarning u yoki bu xususiyati (psixologik xususiyati) tarkib toptiriladi va mustahkamlanadi.

Masalan: bog'cha yoshidagi bolalar ayni bir vaqtning o'zida butunni va uning tarkibiy qismlarini to'la idrok qila olmaydilar.

Ular o'z diqqatlarini yoki bir butun narsaning o'ziga yoki uning bo'laklariga qarata olmaydilar.

Tarkib toptiruvchi eksperiment orqali bolalarga bir butun narsani uning qismlari bilan bir paytda idrok qilish o'rgatiladi.

Buning uchun bolalarga bir butun narsaning obrazini yarata olish mashq qildiriladi (turli geometrik figuralar – doira, kvadrat, kublardan foydalaniladi).

Pedagogik eksperiment orqali biron ta'lim-tarbiya metodining effektivligi aniqlanadi.

Tarkib toptiruvchi eksperiment metodini pedagogik eksperiment metodidan farqlash kerak.

Tarkib toptiruvchi eksperiment orqali turli yoshdagi bolalarni u yoki bu narsalarni to'g'ri idrok qila olishga o'rgatilsa, pedagogik eksperiment orqali biron ta'lim-tarbiya metodining afzalligi aniqlanadi.

Masalan, biron tadqiqotchi bolalarga ta'limiy mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiya metodlarini qo'llashni tavsiya qilsa, uni pedagogik eksperiment metodi orqali sinab ko'radi.

Buning uchun oldindan maktabgacha ta'lim muassasasi ma'muriyati bilan kelishib, bitta eksperimental va bitta sinov guruhi belgilab olinadi.

Shundan so'ng tadqiqotchi eksperimental guruhda pedagogik texnologiya metodi bilan elementar matematik tasavvurlarni o'stirish mashg'ulotlarini o'tkazadi.

Kontrol guruhda esa bu mashg'ulotlar odatdagi an'anaviy metod bilan davom ettiriladi.

Bir-ikki oydan so'ng har ikkala guruhdagi bolalarning o'zlashtirishi taqqoslab ko'riladi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi go'daklarning va maktabgacha yoshdagi bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini; ya'ni organizmning ishga qanchalik layoqatlilikini, bu paytda vujudga keluvchi qiziqish va extiyojlarni, ko'rgazmali-xarakatli, ko'rgazmali-ifodali va mantiqiy tafakkur shakillarini nazarda tutadi: bunday tafakkurning rivojlanishi natijasida bola ruxiyatida eng muxim o'zgarishlar sodir bo'ladi va "bolaning bu rivojlanishi uning yangi yuksak bosqichga ko'tarilishi" yo'lida zamin bo'ladi.

Shunga ko'ra bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi jismoniy tarbiya tashkiliy tuzilishining barcha shakillari mazmunini va uni amalga oshirishda eng qulay pedagogik sharoitlarini ishlab chiqadi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi, bola xarakterining har qaysi bosqichidagi yashirin imkoniyatlar qonuniyatini e'tiborga olgan xolda, jismoniy tarbiyadagi butun tarbiyaviy — ta'limiy kompleksning ilmiy jihatdan asoslangan dasturini xarakterat layoqati va malakasini, jismoniy fazilatlar va ayrim boshlang'ich bilimlarni, nazarda tutadi uning uchun jismoniy tayyorgarlik bo'yicha zaruriy zamin vazifasini o'taydi.

Shu bilan birga, bolalarning qaysi yoshda qanday xususiyatga, qanday layoqatga ega bo'lishlari, asab tizimi va butun organizmning qanday xolatda ekanligi hisobga olinib, dasturni qat'iy izchillikga rioya qilgan xolda o'zlashtirish ko'zda tutiladi.

Bolalar bajaradigan mashqlarga talabni oshirish, ularga saboq berish suratini asossiz jadallashtirish, dasturdagi bazi oraliq bosqichlarni tashlab o'tish aslo mumkin emas.

Chunki bunday faoliyat bola organizmini keragidan ortiq zo'riqtirib, uning sog'ligiga asabiy-ruxiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyalari vazifalarini kompleks xolda xal qiladi. Bolalar jismoniy tarbiyasini tashkil qilishning barcha ko'rinishlarida mashg'ulotlar, xarakterat o'yinlari, mustakil xarakterat faoliyati va boshqalar, murabbiy asosiy e'tiborni o'z ishiga monan imkoniyat darajasida fikrlovchi, aql bilan xarakterat qiluvchi, xarakterat malakalarini muvafaqqiyatli o'zlashtirayotgan, o'zi yashab turgan muxitda dadil va adashmay xarakterat qila oladigan, qiyinchiliklarga duch kelganda ularni ishchanlik bilan yengib o'tadigan, doimo ijodiy izlanishda bo'ladigan bolaga qaratadi.

Bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi muttasil ravishda rivojlanmoqda va bola tarbiyasining xilma xil jabxalarini qamrab olgan behisob tadqiqotlar natijasi erishilgan yangidan yangi bilimlar bilan boyib bormoqda.

Bolalar muassasalari ommaviy amaliyotda tekshirib ko'rilgan tadqiqotlardan olingan dalilarni albatta o'quv dasturlarga, darsliklarga kiritmoq va bolalar bilan olib

boriladigan amaliy mashg'ulotlarda qo'llamoq darkor, zotan aynan shu safar shu yo'l bilan butun ta'lim tarbiya jarayoni rivojiga xissa qo'shish mumkin.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bolaning ilk yoshidan boshlab uning psixologik, aqliy va jismoniy rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Kattalar bilan bo'ladigan munosabat, buyumlar bilan bajariladigan faoliyat va o'yin jarayonlari bola shaxsining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Eksperiment metodlaridan samarali foydalanish esa bolalarning idrok, tafakkur va umumlashtirish qobiliyatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, jismoniy tarbiya nazariyasi bolaning psixofiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi bilan uyg'unlikda olib borilishi zarurligini ko'rsatadi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi jarayonida ilmiy asoslangan metodlardan foydalanish, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tizimli tashkil etish va ta'lim-tarbiya jarayonini kompleks yondashuv asosida olib borish bolaning har tomonlama kamol topishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zokirova, R. (2019). Bolalar psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. G'aniyeva, M. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
3. Vygotskiy, L.S. (1991). Bolalar psixologiyasi. Moskva: Pedagogika.
4. Elkonin, D.B. (1989). Psixologiya razvitiya detey doshkolnogo vozrasta. Moskva: Pedagogika.
5. Xolmatova, D. (2021). Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti.
6. Karimova, V.M., & To'xtaxodjayeva, M.X. (2017). Umumiy psixologiya. Toshkent: Fan.
7. Abdullayeva, M. (2018). Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi. Toshkent: O'qituvchi.
8. Davletshin, M.G. (2000). Psixologiya. Toshkent: O'zbekiston.